



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

## ЎТМИШГА НАЗАР

4 ЖИЛД, 10 СОН

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 4, НОМЕР 10

## LOOK TO THE PAST

VOLUME 4, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2021

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**«Ўтмишга назар» илмий журнали тахририй маслаҳат кенгаши**  
**редакционный совет научного журнала «Взгляд в прошлое»**  
**Editorial board of the scientific journal Looking into the past**

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожинова Дилором Бобожинова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори, Телави  
давлат университети, Грузия

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдишвили Майя**  
тарих фанлари доктори, Телави  
давлат университети, Грузия

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети, Қозоғистон

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент кимё - технология институти

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент  
Ўзбекистон Миллий университети

**Гоффоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
профессор, Телави давлат  
университети, Грузия

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Республикаси  
Фанлар академияси

**Джоробекова Айнуэр Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Дипломатия академияси,  
Қозоғистон Республикаси

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Санпова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти, Россия

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Давлат тарихи институти, Қозоғистон

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор  
Ал-Фаробий номидаги Қозоғистон  
Миллий университети, Қозоғистон

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Ўзбекистон Миллий университети

**Талапов Бахриддин Алижанович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори  
(PhD)

## МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

<b>1. Нодирбек Сайфуллаев</b> ЎЗБЕК ТЕАТР САНЪАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ КЕСИМДА.....	4
<b>2. Фирюза Мухитдинова</b> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АЁЛЛАР ИЖТИМОЙ МАҚОМИНИНГ ТАРИХИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	11
<b>3. Жуммагул Абдурахмонова, Улғбек Исмоилов</b> ЎЗБЕКИСТОНДА ВИЖДОН ВА ЭЪТИҚОД ЭРКИНЛИГИ ДИНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА ЗИЁРАТГОҲЛАР ФАОЛИЯТИ МИСОЛИДА.....	22
<b>4. Валишер Абиров</b> ЗАМОНАВИЙ ВАТАН ТАРИХИ ДИССЕРТАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАРИДА ЎЗБЕК ХАЛҚИ ЭТНОГЕНЕЗИ ВА ЭТНИК ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ.....	37
<b>5. Umidjon Boymurodov</b> O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTONNING HAMKORLIK MUNOSABATLARI.....	46
<b>6. Muhayyo Gaipova</b> TOSHKENT YOG'OCH O'YMAKORLIGI MAKTABI RIVOJIDA IBRAGIMOVLAR SULOLASI VAKILASINING TUTGAN O'RNI.....	53
<b>7. Бобир Зокиров</b> ЎЗБЕКИСТОН-ХИТОЙ ҲАМКОРЛИГИ ВА УНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	59
<b>8. Сардор Кенжаев</b> АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИ ВА ХИТОЙ (МИН) ИМПЕРИЯСИ ЎРТАСИДАГИ САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН.....	67
<b>9. Оксана Пуговкина</b> ТАССР - ЎЗБЕКИСТОН ССР СОВЕТ МУАССАСАЛАРИДА "СОБИҚ"ЛАР ТАЖРИБАСИ ВА БИЛИМИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	74
<b>10. Gulnara Farmanova</b> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA ZARAFSHON VODIYSI HUDUDIDAGI DASTLABKI ARHEOLOGIK TADQIQOTLAR VA STRATIGRAFIK QAZISHMALAR.....	86
<b>11. Дилфуза Ҳамидова</b> ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИГА ОИД КУЛОЛЧИЛИК БУҶОМЛАРИ ТАРИХИ.....	92
<b>12. Xayitmurod Xurramov</b> OKS SIVILIZATSIYASINING ARAB KO'RFAZIGA TA'SIRI MUAMMOSIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	97

# ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Umidjon Sheraliyevich Boymurodov,

Buxoro davlat universiteti


Tarix va madaniy meros fakulteti

jahon tarixi kafedrasini o'qituvchisi

umidjon\_1108@inbox.ru

## O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTONNING HAMKORLIK MUNOSABATLARI

**For citation:** Umidjon Sh. Boymurodov. COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND AFGHANISTAN. 2021, vol. 4, issue 10, pp.46-52

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-10-5>

### ANNOTATSIYA

Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng Afg'oniston davlati bilan diplomatik aloqa o'rnatilishi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohada hamkorlik aloqalarini tahlil etish, O'zbekistonning Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi uchun qilgan sa'y-harakatlari bo'yicha xulosalar keltirilgan. XX asr so'nggi o'n yilligida Afg'onistonda siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, tolibonlarni hokimiyatga kelishi, mintaqa davlatlarida xavfni vujudga kelishi, O'zbekistonni dunyo hamjamiyatida Afg'onistonda tinchlik o'rnatish uchun bir qator takliflar bilan chiqishi keng yoritilgan. O'zbekiston Afg'onistonda zamonaviy davlat shakllangandan so'ng, siyosiy, iqtisodiy aloqalari yanada kengayib bordi. Ikki davlat prezidentlarining bir necha bor uchrashib, hamkorlik bo'yicha shartnomalar imzolashi, O'zbekistonni Afg'onistonda sanoat, transport, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qilgan harakatlari keng yoritilib, tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Afg'oniston, O'zbekiston Respublikasi, Islom Karimov, tolibon, "6+2", BMT, hamkorlik, Ashraf G'ani, Xayraton - Mozori Sharif, tuzilmalar.

Умиджон Шералиевич Боймуродов,  
Преподаватель кафедры всеобщей истории  
факультета истории и культурного наследия  
Бухарского государственного университета.

## СОТРУДНИЧЕСТВО МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И АФГАНИСТАНОМ

### АННОТАЦИЯ

В исследовании анализируется установление дипломатических отношений с Республикой Узбекистан после обретения независимости, анализ сотрудничества в политической, экономической, социальной и культурной сферах, роль Узбекистана в установлении мира в Афганистане действия даны. Обострение политической ситуации в Афганистане в последнее десятилетие XX века, приход к власти талибов, угроза региону, ряд

предложений Узбекистана по установлению мира в Афганистане в мировом сообществе широко освещаются. После образования современного государства в Афганистане расширились политические и экономические связи Узбекистана. Два президента встречались несколько раз и подписывали соглашения о сотрудничестве, а также широко освещались и анализировались усилия Узбекистана по развитию промышленности, транспорта и сельского хозяйства в Афганистане.

**Ключевые слова:** Афганистан, Республика Узбекистан, Ислам Каримов, Талибан, «6 + 2», ООН, сотрудничество, Ашраф Гани, Хайратон - Мазари-Шариф, структуры.

**Umidjon Sh. Boymurodov**

Teacher of the Department of World History, Faculty and  
Cultural Heritage, Bukhara State University,  
umidjon\_1108@inbox.ru

## COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND AFGHANISTAN

### ABSTRACT

The study analyzes the establishment of diplomatic relations with the Republic of Uzbekistan after independence, the analysis of cooperation in the political, economic, social and cultural spheres, the role of Uzbekistan in the establishment of peace in Afghanistan. Conclusions are given on the actions of 'y. The escalation of the political situation in Afghanistan in the last decade of the twentieth century, the rise to power of the Taliban, the threat posed by countries in the region, Uzbekistan's proposals to the world community for peace in Afghanistan are widely covered. After the formation of a modern state in Afghanistan, Uzbekistan's political and economic ties have expanded. The presidents of the two countries have met several times and signed cooperation agreements, and Uzbekistan's efforts to develop industry, transport and agriculture in Afghanistan have been widely covered and analyzed.

**Index Terms:** Afghanistan, Republic of Uzbekistan, Islam Karimov, Taliban, "6 + 2", UN, cooperation, Ashraf Ghani, Hayraton - Mazar-i-Sharif, structures.

### 1. Dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lganidan so'ng, janubiy qo'shnisi Afg'oniston bilan diplomatik munosabatlari 1992-yil 13-oktyabrda o'rnatildi. Shu kuni Afg'oniston Islom Davlati rahbari B.Rabboniy boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurib, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov bilan oliy darajada muzokaralar olib bordi[1]. Lekin XX asrning oxirlariga kelib Afg'onistonda siyosiy vaziyat izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga "Tolibon" harakatini kelishi natijasida xalqning turmush darajasini yanada yomonlashuvi, Afg'onistonni diniy eksterimizm, terrorizm, narkotik moddalar yetishtiradigan markazga aylanishi, nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo xavfsizligiga xavf sola boshladi. Shunday sharoitda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan 1995 yil 24 oktyabrda 50-yilligi tantanali yig'ilishida shunday degan edi: "Afg'onistonda davom etayotgan urush Markaziy Osiyoninggina emas, butun dunyoning tinchligi va xavfsizligiga tahdid solib turibdi. Bizning fikrimizcha, Afg'onistondagi keskinlikni hal qilish kaliti, eng avvalo, tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etishdadir. Biz yana bir bor BMT Xavfsizlik Kengashiga kim tomondan bo'lmasin, Afg'onistonga qurol olib kirishni taqiqlab qo'yish taklifi bilan murojaat qilamiz. O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi ko'pgina xalqaro tuzilma va kompaniyalar qo'llab-quvvatlayotgan, Afg'oniston hududi orqali Hind okeani portlariga chiqadigan temir yo'l, avtomobil kommunikatsiyalari qurush bo'yicha yaxshi-yaxshi loyihalarning amalga oshishidan manfaatdordir"[2].

O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida afg'on mojarosini bartaraf etish, nizolashayotgan tomonlarni murosaga chaqirish, afg'on zaminida tinchlik va osoyishtalikni o'rnatish hamda afg'on muammosini hal etilishidan manfaatdor bo'lgan barcha ichki va tashqi kuchlarning butun

harakatlarini birlashtirish maqsadida yangi bir tashabbus bilan ya'ni keyinchalik "6+2" nomi bilan ataluvchi muloqot guruhini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi [3].

Bundan tashqari marhum Prezidentimiz Islom Karimov BMTning 2000 yil sentyabrda "Ming yillik sammit"ida, 2001 yil iyunda bo'lib o'tgan SHHTga a'zo davlatlar sammitida va boshqa xalqaro anjumanlarda Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, xalqaro terrorizm va narkobiznes xavfidan ogohlantirib, unga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar va davlarni faol bo'lishga qayta-qayta chaqirdi.

Hozirgi kunda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Afg'oniston masalasida bir aqtor takliflarni ilgari surib kelmoqda. Masalan 2017 yil sentyabrda bo'lgan BMT ning 72-sessiyasida quyidagilarni aytib o'tdi;" Aminmizki, Afg'onistonda tinchlikka erishishning yagona yo'li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o'rtasida oldindan hech qanday shart qo'ymasdan, to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borishdir. Muzokaralar afg'onistonliklarning o'zlari hal qiluvchi o'rin tutadigan holda, Afg'oniston hududida va BMT shafeligida o'tishi lozim. Donishmand afg'on xalqi o'z taqdirini o'zi hal qilishga haqlidir" [4].

## **2. Metodlar:**

Obyekti sifatida XX asr 90-yillaridan to XXI asr boshlarida O'zbekiston va Afg'oniston munosabatlari belgilangan.

Predmeti sifatida o'zbek-afg'on munosabatlarini yo'lga qo'yilishi, ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikning ijobiy tomonlari tashkil etadi.

Usullari sifatida tadqiqot davomida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan keng foydalanildi. Xususan, kuzatish, umumlashtirish, tarixiylik, mantiqiylik, tizimli tahlil, ivalent tahlil, funksional tahlil, qiyoslash, xronologik va shu kabi usullardan foydalanildi.

## **3. Tadqiqot natijalari:**

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 13-oktyabrda o'rnatilgan[5]. O'zbekiston Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirishga, afg'on xalqining turmushini yaxshilashga katta hissa qo'shmoqda. Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik nafaqat mintaqa mamlakatlari, balki butun jahon hamjamiyati ham manfaatdor bo'lgan hududda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun katta istiqbolga ega va mazkur yo'nalishda uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikni oshirish biz uchun yuqori ustuvorlik kasb etadi, deydi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori Obid Hakimov[6].

Afg'oniston bilan ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, qo'shni davlatlar bilan konstruktiv va o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan O'zbekiston tashqi siyosatining muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston har doim Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni tezroq qaror toptirish tarafdori bo'lib, o'zaro savdo ayirboshlash hajmini oshirish hamda yirik infratuzilmaviy va gumanitar loyihalarni amalga oshirish orqali Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirishga, afg'on xalqining turmushini yaxshilashga katta hissa qo'shmoqda. O'zbekiston Afg'oniston muammosini tinch bartaraf etishga intilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I. Karimov 1993-yil BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida bu mamlakatdagi chigal ahvolga jahon jamoatchiligining e'tiborini qaratdi, 1995-yil 50-sessiyada bu muammoni bartaraf qilish xususidagi takliflarini bayon etdi. 1997-yil O'zbekiston Respublikasi prezidenti Afg'onistonga chegaradosh 6 mamlakat hamda AQSH va Rossiya ishtirokida muloqot o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Shu tashabbus amalga oshib, „6+2“ guruhi tashkil etildi. Uning birinchi uchrashuvi o'sha yil 16-oktabr da Nyu-Yorkda bo'ldi. Nihoyat, 1999-yil 19-iyulda Toshkentda shu guruhning navbatdagi uchrashuvi o'tkazildi. Unda Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, shuningdek AQSh va Rossiya vakillari qatnashdi, BMT shafelik qildi. Unda Afg'onistondagi nizolashayotgan tomonlar: „Tolibon“ harakati va Afg'oniston Birlashgan fronti mo'tabar namoyandalari ishtirok etishi katta voqea bo'ldi. Anjuman nihoyasida „Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida“ Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi. Deklaratsiya „Tolibon“ bilan Birlashgan front o'rtasida va „6+2“ guruhi a'zolari o'rtasida bevosita muloqatni yo'lga qo'yishga asos bo'ldi. BMT Xavfsizlik Kengashi „6+2“ guruhining Toshkent uchrashuvi yakunlarini yuqori baholadi. Qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasi BMT hujjati maqomini olgan[7].

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik 2016-yilga kelib izchil rivojlana boshladi, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik katta istiqbollarga ega bo'lib, so'nggi uch yil ichida jadal rivojlanib bormoqda. O'zbekiston va Afg'oniston mamlakatlarining o'zaro munosabatlarida Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanganlaridan so'ng yangi sahifa ochildi. 2017 yilning yanvarida O'zbekistonning hukumat delegatsiyasi Afg'onistonga bo'lib qaytishdi. So'nggi uch yil ichida Afg'oniston Prezidenti rasmiy va ishchi tashriflar bilan Toshkentga ikki marta tashrif buyurgan. Bundan tashqari, ikki davlat rahbarlari muntazam ravishda telefon orqali muloqotlar olib boradilar, so'nggisi shu yilning 2 avgustida bo'lib o'tgan bo'lib, unda Afg'onistonning barqaror rivojlanishiga ko'maklashish va mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga faol jalb qilish maqsadida ustuvor infratuzilma va investitsiya loyihalarini ilgari surish bo'yicha ishlarni kuchaytirishga katta e'tibor qaratildi[8]. Epidemiologik vaziyatning og'irlashishi ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan, Afg'onistonda ham kuzatildi. Mazkur davrda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan joriy yilning aprel oyida Afg'onistonga 600 tonnalik insonparvarlik yordami, shu jumladan, himoya kombinezonlari, natriy gipoxlorit, respiratorlar, qo'lqoplar, pirometrlar, bolalar uchun kiyim-kechak, hamda oziq-ovqat mahsulotlari jo'natildi. Ta'kidlash joizki, bu birinchi gumanitar yuki emas, 2018 yilning yanvar oyida Afg'onistonga O'zbekiston Prezidenti nomidan 25 ta avtobus va qishloq xo'jaligi texnikasi beg'araz yuborilgan. Iyun oyida esa qurg'oqchilik oqibatida Afg'onistonda ekinlar yetishmasligi munosabati bilan ushbu mamlakatga gumanitar yordam sifatida 3 ming tonna oziq-ovqat bug'doy yuborildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda afg'on kapitali ishtirokidagi 658 korxonalar, shu jumladan 195 qo'shma korxonalar va 100 foiz xorijiy kapital ishtirokidagi 463 korxonalar faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, Surxondaryo viloyati hududida afg'on kapitali ishtirokidagi 234 ta korxonalar (35%) tashkil etildi.

Energetik hamkorlik. Afg'oniston elektr energiyasining tanqisligi bilan yaqqol ajralib turadi, chunki o'zining ishlab chiqarish quvvatlari elektr energiyasiga bo'lgan talabni to'liq qoplay olmaydi va elektr energiyasini import qilish hajmi tashqi tomondan ajratiladigan moliyaviy yordam miqdoriga bog'liq. 2018 yilda Afg'oniston 1,1 milliard kVt / soat elektr energiyasini ishlab chiqargan bo'lsa 4,6 milliard kVt / soatni import qilgan, ya'ni o'zi ishlab chiqargan hajmdan 4 marotaba ko'p degani. Ishlab chiqarish va import hajmining yetarli emasligi, elektr uzatish liniyalarining tarmog'ining keng darajada mavjud emasligi iqtisodiyot tarmoqlari va aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirishga imkon bermaydi. Afg'onistonda aholining atigi 30 foizigina elektr tarmog'iga ulangan. Afg'oniston umumiy aholisining 75 foizini tashkil etadigan qishloq aholisining aksariyati elektrsiz qolmoqda[9]. Afg'onistondagi energetika sohasidagi muammolarni hal qilish uchun 2032 yilgacha energetikani rivojlantirishning Bosh rejasini o'z ichiga olgan Milliy energiya ta'minoti dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda aholi va mamlakat iqtisodiyotini elektr energiyasi bilan ta'minlashni 30% dan 83% gacha, qishloq aholisini 28% dan 65% gacha va shaharlarni 100% gacha oshirishni nazarda tutilgan.

Transport sohasidagi hamkorlik. Mozori Sharif - Hirot temir yo'l liniyasini qurish bo'yicha qo'shma loyihasi Xayraton - Mozori Sharif temir yo'l liniyasining kengaytirilgan qismi bo'lib yangi transafg'on transport koridorini tashkil etadi. Bundan tashqari, Mozori-Sharif-Peshovar temir yo'l liniyasini qurish masalalari ham ko'rib chiqilmoqda. Ushbu loyihalarni amalga oshirish nafaqat o'zaro savdo uchun qulay shart-sharoitlar, balki har ikki davlatning tranzit salohiyatini oshirishga, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini bir-biriga bog'lashga hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Pokistonning Gvadar va Karachi portlariga kirish imkoniyatini ochishga yordam beradi. Ikki mamlakat o'rtasida eksport-import va tranzit yuk oqimlarini yengillashtirish maqsadida Termiz bojxona terminalida "Termiz Kargo" xalqaro logistika markazi tashkil etildi. Mazkur logistika markazi Afg'onistondan uchinchi mamlakatlarga meva va sabzavotlarni qayta ishlash va eksport qilish uchun yangi saralash va qadoqlash liniyalari bilan jihozlanishi rejalashtirilgan. Hozirgi vaqtda terminal bir vaqtning o'zida 300 tagacha yuk mashinasini qabul qilish quvvatiga ega, shuningdek, temir yo'l yo'laklari va konteynerlarni saqlash uchun omborlar tashkil qilingan[9].

Afg'on yoshlari uchun Termiz shahridagi o'quv markazi[10].

Afg'onistonda talab yuqori bo'lgan kadrlarni tayyorlashga ko'maklashish maqsadida Termiz shahrida o'zbek-afg'on "ta'lim markazi" tashkil etilib, unda o'zbek filologiyasi, temir yo'l transporti, qishloq xo'jaligi va boshqa mutaxassisliklar bo'yicha 200 nafarga yaqin afg'on yoshlari tahsil olmoqda. Shu bilan birga, ta'lim xarajatlarining yarmini afg'on tomoni to'laydi, qolgan qismini O'zbekiston tomon qoplaydi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Yevropa Ittifoqi va BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonalarini o'qitish uchun ta'lim grantlarini oladigan afg'on ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan transchegaraviy tashabbusni e'lon qilishdi. Yevropa Ittifoqi ushbu tashabbusni moliyalashtirish uchun 2 million yevro miqdorida grant ajratdi. Ushbu grant 2025 yilgacha BMTTD tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur grant doirasida afg'onistonlik yosh ayollar Toshkent agrar universiteti ko'magida qishloq xo'jaligi sohasida bilim olishadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Prezidenti Afg'onistonda maxsus Xalqaro ta'limni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Jamg'armaning asosiy maqsadi yoshlarni zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish, iqtidorli talabalar va yosh olimlarga stipendiya va grantlar berishdir[11].

Ikki tomonlama hamkorlik istiqbollari. O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni yanada kengaytirishdan o'zaro manfaatdor va nafaqat savdo sohasida, balki sarmoyaviy sohada ham iqtisodiy hamkorlikning yangi yo'nalishlarini izlashga intilmoqda. Transport va energetika hamkorlikning strategik yo'nalishlari bo'lib qolmoqda. O'zbekistonlik mutaxassislar va investitsiyalar ishtirokida Afg'onistondagi 5 ta to'qimachilik va 3 ta yog'-moy korxonalarini tiklash bo'yicha ishlar davom ettiriladi. Hamkorlikning istiqbolli yo'nalishi sifatida O'zbekiston korxonalarining Afg'oniston Islom Respublikasi hududida yo'llarni rekonstruksiya qilish va suv inshootlarini qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarda ishtirok etishi ham bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi ham hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Afg'oniston qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchisi bo'lib, ko'plab tovar turlari bo'yicha o'zbeklarga o'xshash. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yo'lga qo'yilganligini hisobga olsak, bu kooperatsiya aloqalari, qo'shma korxonalar va ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish uchun imkoniyatlar ochadi. O'z navbatida, afg'on mutaxassislari Surxondaryo viloyatida dorivor o'tlar (15 gektar) va do'lana (yiliga 100 tonna) yetishtirish bo'yicha loyihalarga sarmoya kiritishga qiziqish bildirishgan.

Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, savdo-iqtisodiy aloqalarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, o'zbek mahsulotlarini Afg'oniston bozoriga eksport qilish hajmini ko'paytirish va turlarini kengaytirish uchun Afg'oniston bilan imtiyozli savdo to'g'risida shartnoma tuzish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ro'yxatdan o'tkazish natijalarini Afg'onistonda tan olish to'g'risida kelishuvlarga erishish Afg'onistonga mahalliy farmatsevtika mahsulotlarini yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytirar edi, unga bo'lgan talab koronavirus pandemiyasi sharoitida faqat oshib boradi.

2020-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Afg'oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida qarori chiqdi[12]. Ushbu qarordan so'ng Afg'oniston bilan hamkorlik masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus guruh tuzildi. 2017-yil 4-dekabrda Afroniston Prezideiti Ashraf G'anining O'zbekistonga davlat tashrifi bo'lib o'tdi. Bu tashrif Afg'oniston Prezidentining so'nggi 16 yil ichidagi birinchi marta qilingan davlat tashrifi edi. Tashrif doirasida ikki mamlakat o'rtasida 20 ta ikki tomonlama bitim tuzildi[13]. Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani 2017-yil dekabrda Buxoro davlat universiteti professor-o'qituvchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda shunday deb ta'kidlagan edi: "Jahon fani va islom madaniyati rivojlanishida muhim o'rin egallagan Buxoroga kelishni orzu qilganman. O'zbekiston zamini ko'plab buyuk allomalarni yetishtirgan, ular orasida Imom Buxoriy va Imom Termiziylar bor. Bu yerda ta'lim olayotgan yoshlar o'z ajdodlarining munosib vorislari bo'lib yetishmokda"[14]. Darhaqiqat, keyingi uch yilda Afg'onistonning kelgusida tinch rivojlanishiga maqbul va ijobiy yondashuv shakllanmoqda. Madaniy-gumanitar sohada hamkorlik samarali



rivojlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusiga kura, 2017 yilning noyabrida Termiz shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi afg'on fuqarolarini o'qitish bo'yicha ta'lim markazi tashkil qilindi. 2018-yilda "O'zbekiston-Afg'oniston" do'stlik jamiyatining tashkil qilinishi ikki davlat munosabatlarida tarixiy voqea bo'ldi[15]. Jamiyatning faoliyati, eng avvalo, har ikki mamlakatning madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy sohalaridagi hamkorligini kuchaytirishga, delegatsiyalar bilan almashishga yo'naltirildi. 2016-yilning 12-15-martida Bobur nomidagi Xalkaro jamg'arma raisi Z.Mashrabov boshchiligidagi delegatsiya Hirot shahriga tashrif buyurdi, u yerda Alisher Navoiy maqbarasi hududi obodonlashtirildi va Kamoliddin Bexzod makbarasi restavratsiya qilindi[16].

#### 4. Xulosaiar:

Xulosa qilib aytganda, Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik nafaqat mintaqa mamlakatlari, balki butun jahon hamjamiyati ham manfaatdor bo'lgan hududda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun katta istiqbolga ega va mazkur yo'nalishda uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikni oshirish biz uchun yuqori ustuvorlik kasb etadi.

#### Иқтибослар/ Сноски/ References:

1. Тюриков В, Шагулямов Р. Независимая Республика Узбекистан: Памятные события и даты (1991-1996),-Т.:Ўзбекистон, 1997.-С. 55.( Tyurikov V, Shagulyamov R. Nezavisimaya Republic Uzbekistan: Pamyatnye sobyitiya i daty (1991-1996), - T.: O'zbekiston, 1997.-S. 55.)
2. Karimov I.A. Mintaqaviy xavfsizlikdan yalpi xavfsizlik sari. BMTning 50 yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida so'zlagan nutq/Asarlar to'plami. Bunyodkorlik yo'lidan.T.4.-T.:O'zbekiston 1996.-B.56-57. ( Karimov I.A. From regional security to overall security. Speech / Collection of Works at the Special Session of the General Assembly on the Occasion of the 50th Anniversary of the United Nations. From the path of creativity.T.4.-T. : Uzbekistan 1996.-P.56-57).
3. Rashidov R.Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. T.Navro'z -2017. B.189.( Rashidov R. The problem of statehood in Afghanistan: history and modernity. T.Navro'z -2017. B.189.)
4. [www.uzavtoyul.uz/uz/post](http://www.uzavtoyul.uz/uz/post)
5. Дониёров А. Х., Каримов Н. Р. Узбекистоннинг замонавий тарихшунослигида Афғонистон масалаларига доир (XX аср охири XXI аср бошларига оид тарихшунослик махлили// "Afg'oniston XX va XXI asrlar chorrahasida: tarixiy, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatlari va uning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro munosobati masalalari". Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plami". -T.: TDSHI, 2019. (Doniyorov AH, Karimov HP On the problems of Afghanistan in modern historiography of Uzbekistan (late twentieth century and early XXI century historiography // "Afghanistan at the crossroads of XX and XXI centuries: historical, economic, social, political aspects and its relations with Central Asian countries" "Issues of mutual relations". Proceedings of the international scientific conference ". -T. : TDSHI, 2019.)
6. <https://review.uz/post/ozbekiston-afgoniston>
7. Safoyev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. - T.:Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti. 2005. B 71.( Safoyev S.S. Geopolitics in Central Asia. – T. : University of World Economy and Diplomacy. 2005. B 71.)
8. Mannonov A.M, Abdullayev N.A,Rashidov R.R. Afg'onison tarixi qo'llanma.-T.: "Barkamol fayz media":2018.B 215.( Mannonov A.M., Abdullayev N.A, Rashidov R.R. Handbook of Afghan History.-T. : "Harmonious Fayz Media":. 2018.B 215. )
9. <https://Uz.m.wikipedia.org/wiki/Afg'oniston>
10. <https://review.uz/post/ozbekiston-afgoniston>
11. <https://review.uz/post/ozbekiston-afgoniston>
12. [HTTPS://LEX.UZ/UZ/DOCS/-5100020](https://LEX.UZ/UZ/DOCS/-5100020)

13. Учреждено общество дружбы "Узбе-кистан - Афганистан". 10.09.2018. <https://nuz.uz/politika/35677-uchrezhdeno-obschestvo-druzhby-uzbekistan-afganistan.html>(Uchrejdено obshchestvo druzhby "Uzbe-kistan - Afghanistan". 10.09.2018. <https://nuz.uz/politika/35677-uchrezhdeno-obschestvo-druzhby-uzbekistan-afganistan.html>)
14. Президенту Афганистана присвоено звание почетного доктора Бухарского государственного университета.// UZA06.12.2017 <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/prezidentu-afganistana-prisvoeno-zvanie-pochetnogo-doktora-bukharskogo-gosudarstvennogo-universiteta/>( To the President of Afghanistan the honorary title of honorary doctor of Bukhara State University.//UZA06.12.2017 <https://podrobno.uz/cat/community/to-the-president-of-afghanistan-awarded-title-honorary-doctoral-university-bukhara-state/>)
15. Маннонов А. М. Исторические пере-ломы Афганистана на рубеже XX-XX вв. - С.7.// "Afgoniston XX va XXI asrlar chorrahasida: tarixiy, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatlari va uning Markaziy Osiyo mamlakatlan bilan o'zaro munosobati masalalari". Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari toplami - T.TDSHI, 2019. (in uzbek, russian, english).( Mannonov A. M. Istoricheskie perelomy Afghanistan na rubeje XX-XX vv. - S.7.//. "Afghanistan at the Crossroads of the 20th and 21st Centuries: Historical, Economic, Social, and Political Aspects and Issues of Its Relations with Central Asian Countries." Proceedings of the International Scientific Conference T.TDSHI, 2019. (in Uzbek, Russian, English).)
16. Пресс-релиз "Панельной сессии по обсуждению культурно-гуманитарного и образовательного сотрудничества между Узбекистаном и Афганистаном". 25.03.2018. <http://press-club.uz/ru/25-marta-panelnoj-sessii-po-obsuzhdeniyu-kulturno-gumanitarnogo-i-obrazovatel'nogo-sotrudnichestvo-mezhdu-uzbekistanom-i-afganistanom/>( Press-release "Panelnoy session on observation of cultural-humanitarian and educational cooperation between Uzbekistan and Afghanistan". 25.03.2018. <http://press-club.uz/ru/25-marta-panelnoj-sessii-po-obsuzhdeniyu-kulturno-gumanitarnogo-i-obrazovatel'nogo-sotrudnichestvo-mezhdu-uzbekistanom-i-afganistanom/>)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

## **ЎТМИШГА НАЗАР**

**4 ЖИЛД, 10 СОН**

## **ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ**

**ТОМ 4, НОМЕР 10**

## **LOOK TO THE PAST**

**VOLUME 4, ISSUE 10**

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000